# BOSHLANG‘ICH TA’LIM BU SHAXSNING TAFAKKUR VA KELAJAKNI BOG‘LOVCHI KO‘PRIKDIR

***Amirova Marjona Ramizovna***
*KIUT Boshlangich ta’lim yo‘nalishi*
*PRI -923 guruh talabasi*
*amirovamarjonka@gmail.com*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’limning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni, uning nafaqat savod chiqarish, balki shaxs ma’naviyatini shakllantirishdagi ahamiyati, zamonaviy pedagogik yondashuvlar va boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi shaxsiga qo‘yiladigan yuksak talablar tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** Boshlang‘ich ta’lim, poydevor, kompetensiya, interaktiv metod, pedagogik mahorat, shaxs.

Boshlang‘ich ta’lim haqida gap ketganda, ko‘pchilikning ko‘z oldiga faqat harf tanitayotgan, daftar tutishni o‘rgatayotgan oddiy sinf keladi. Aslida esa bu tasavvur juda yuzaki ko‘rinadi. Agar chuqurroq nazar tashlasak, boshlang‘ich ta’lim bu shunchaki to‘rt yillik saboq emas, balki insonning butun umri davom etadigan ulkan binosining poydevori, uning taqdirini belgilab beradigan muqaddas ostona ekanligini anglaymiz. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida va davlat ta’lim standartlarida bu bosqichning bosh maqsadi o‘quvchida o‘qishga bo‘lgan kuchli ishtiyoqni va bilim olish ehtiyojini shakllantirish deb belgilangani ham bejiz emas, chunki aynan shu davrda bolaning o‘qishga bo‘lgan muhabbati yo uyg‘onadi, yo butunlay so‘nadi.

Men boshlang‘ich ta’limni faqat yodlatish jarayoni deb emas, balki uyg‘otish san’ati deb bilaman. Eski maktabda o‘qituvchi gapiruvchi, bola esa tinglovchi edi. Hozir zamon o‘zgardi, bugungi bola axborot dengizida yashayapti. Unga doskada bo‘r bilan yozilgan quruq misol bilan ta’sir o‘tkaza olmaysiz. U harakatni, o‘yinni, rangbaranglikni istaydi. Shuning uchun ham haqiqiy dars deganda men o‘quvchi “ustoz, vaqt tez o‘tib ketdimi?” deydigan darsni tushunaman. Bunday dars esa faqat interaktiv va kompetensiyaviy yondashuv bilan tug‘iladi, ya’ni bolaga tayyor baliqni tutqazib berish emas, balki baliq tutishni o‘ziga o‘rgatish bilan. Masalan, matematika darsida 10 mingni 2 ga bo‘lishni o‘rgatish bilan birga, shu pulga bozordan nima olish mumkinligini, pulni qanday tejash kerakligini tushuntirsak, biz bolada hayotiy ko‘nikma hosil qilgan bo‘lamiz, ona tilida esa “Vatan” so‘zini shunchaki ko‘chirttirib qo‘ya qolmay, “Vataning uchun bugun nima ish qilding?” deb savol bersak, uning qalbida mas’uliyat hissini uyg‘otgan bo‘lamiz va bu tafakkur keyinchalik raqamli savodxonlik bilan uzviy bog‘lanib ketadi, chunki bugungi boshlang‘ich sinf o‘quvchisi

ertaga sun’iy intellekt bilan ishlashi kerak, unga kompyuter savodxonligini ham aynan shu paytda, o‘yin orqali, bosqichma-bosqich singdirish lozim.

Bu jarayonda har bir bolaning alohida olam ekanligini unutmaslik kerak, chunki sinfda o‘ttizta o‘quvchi bo‘lsa, bu o‘ttizta turli taqdir, o‘ttizta turli xarakter degani. Biri tez hisoblaydi, ikkinchisi chiroyli rasm chizadi, uchinchisi esa tortinchoq va sekin o‘zlashtiradi. Haqiqiy pedagogik mahorat esa barcha bolani bitta o‘lchov bilan baholashda emas, balki har birining qalbiga kalit topa olishda namoyon bo‘ladi va aynan shu yerda inklyuziv ta’limning asl mohiyati ko‘rinadi. Inklyuzivlik deganda faqat imkoniyati cheklangan bolalarni emas, balki har bir bolaning o‘z tezligida, o‘z qobiliyati bo‘yicha rivojlanishiga sharoit yaratishni tushunish kerak, ba’zan sinfdagi eng sho‘x, tinib-tinchimas bola eng iste’dodli bola bo‘lib chiqadi, shunchaki uning energiyasini to‘g‘ri yo‘naltirish kerak xolos va bu yo‘nalish ota-ona bilan mustahkam hamkorliksiz amalga oshmaydi.

Negaki, bola tarbiyasi faqat maktabning ishi emas, bu maktab va oila o‘rtasidagi ko‘prikdir. O‘qituvchi maktabda ekkan urug‘, agar uyda ota-ona tomonidan sug‘orilmasa, hech qachon unib chiqmaydi. Shuning uchun ham zamonaviy boshlang‘ich ta’limda ota-ona majlislarini rasmiyatchilik uchun o‘tkazish emas, balki ota-onani ta’lim jarayonining haqiqiy hamkoriga aylantirish muhim. Farzandining daftarini birga tekshiradigan, kitob o‘qib beradigan ota-ona o‘qituvchining eng yaqin yordamchisidir va bu hamkorlikning davomi sifatida baholash tizimiga ham yangicha qarash kerak. Baho bolani qo‘rqitish yoki jazolash quroli bo‘lmasligi kerak, “2” olgan bolaning qo‘lidan ushlab “-qani, birga xatolaringni topamiz” deyish, uning xatosini emas, harakatini rag‘batlantirish - bu haqiqiy tarbiyadir, chunki boshlang‘ich sinfda qo‘yilgan nohaq baho bola ishonchini butunlay sindirishi mumkin.

Bularning barchasini amalga oshirish uchun esa albatta, katta yurak egasi kerak deb bilaman, oliy sinf o‘qituvchisi bo‘lish uchun bilim kifoya qilsa, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi bo‘lish uchun avvalo mehr kerak. Chunki olti yoshli bola sizdan formula kutmaydi, u sizdan mehr kutadi, u sizning kayfiyatingizni darsdan ham yaxshi eslab qoladi. Agar siz unga baqirsangiz, u harfni emas, qo‘rquvni o‘rganadi, agar siz unga ishonsangiz, u o‘ziga ishonishni o‘rganadi. Shu bois bu kasbga tasodifan kelib qolgan odamlar uzoqqa bora olmaydi, bu sohaga faqat bolani chin dildan sevadigan, har bir kichik yutug‘idan o‘z farzandinikidek quvonadigan insonlar kelishi kerak va bunday o‘qituvchining mahorati diplomida emas, o‘quvchisining ko‘zidagi porlashda ko‘rinadi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich ta’limga ajratilgan har bir so‘m xarajat emas, balki kelajakka qo‘yilgan eng daromadli sarmoyadir. Poydevori mustahkam binogina asrlar davomida yashagani kabi, boshlang‘ich ta’limi mustahkam davlatgina buyuk kelajakni qura oladi. Davlatimiz tomonidan bu sohaga qaratilayotgan yuksak e’tibor ham aynan shundan dalolat beradi. Bugun biz birinchi sinf o‘quvchisining qo‘liga

tutqazayotgan kichkina qalam, ertaga Vatan taqdirini belgilaydigan ulkan imzo bo‘lib qaytishini hech qachon unutmasligimiz kerak, chunki bugungi boshlang‘ich sinf o‘quvchisi - ertangi O‘zbekiston taqdirini hal qiladigan shaxsdir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. 2020-y.
2. Boshlang‘ich ta’lim davlat ta’lim standarti. RTM, 2022-y.
3. Yo‘ldoshev J.G., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. T.: O‘qituvchi, 2004.
4. Mavlonova R.A. Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi. Darslik. T.: 2013.
5. Ishmuhamedov R. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. T.: Iste’dod, 2008. 6. http://www.lex.uz, http://www.ziyonet.uz